



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XORAZM VILOYATI XALQ DEPUTATLARI TUPROQQAL’A TUMAN KENGASHI QARORI

Tuproqqal’a tuman “Yoshlik” mahallasi Komiljon Otaniyozov ko‘chasi, 1-uy

2022 - yil 27 - yanvar

VI-51-3-12-218-K/22

Tuproqqal'a tumani hokimligi

2021-yilda jamoatchilik fikri asosida shakillantirilgan tadbirlar moliyalashtirishga yo‘naltirilgan mablag‘lar hisoboti to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-avgustdagi “Byudjet ma’lumotlarining ochiqligini va byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3917-sonli hamda 2021-yil 13-apreldagi “Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5072-sonli Qarorlariga asosan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021-yil 22-apreldagi KQ-213-IV-sonli Qarori, shu bo‘yicha xalq deputatlari tuman Kengashining 2021-yil 28-apreldagi “Mahalliy byudjet mablag‘lari sarflanishida jamoatchilik ishtirokini ta’minlash to‘g‘risida”gi 36/6-2-sonli qarori bilan tasdiqlangan namunaviy Nizomning 24, 25-bandlari ijrosini ta’minlash maqsadida xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Xalq deputatlari tuman kengashining 2021-yil 7-maydagi “Mahalliy byudjet mablag‘lari sarflanishida jamoatchilik ishtirokini ta’minlash to‘g‘risida”gi 36/6-2-sonli qarori bilan tasdiqlangan namunaviy Nizomning 24-bandiga asosan 2021-yilda jamoatchilik fikri asosida shakillantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilgan mablag‘lar yuzasidan tuman hokimligi moliya bo‘limi mudiri B. Atabayevning hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. 2021-yilda jamoatchilik fikri asosida shakillantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilgan mablag‘lar, ya’ni tashabbusli byudjetlashtirish natijalari bo‘yicha ma’lumotlar va tashabbusli byudjetlashtirish natijalari bo‘yicha ma’lumot 1-ilovaga asosan;

2021-yilda o‘tkazilgan tashabbusli byudjet jarayoni yakunlariga ko‘ra ishlari amalga

o'shish uchun ajratilgan mablag'lar bilan shartnomalarga muvofiq yakuniy mablag'larga nisbatan bo'shab qolgan (iqtisod qilingan) qismini jamg'armaga qayta tiklash miqdori to'g'risidagi ma'lumot 2-ilovaga asosan tasdiqlansin

3. Tuman hokimligi moliya bo'limi (B.Atabayev) hamda tuman g'aznachilik bo'linmasi (I.Madaminov)lar shartnomalarga muvofiq yakuniy mablag'larga nisbatan bo'shab qolgan (iqtisod qilingan) qismini jamg'armaga belgilangan tartibda qayta tiklash va tashabbusli byudjetlashtirish natijalari bo'yicha ma'lumotlarni tuman hokimligi axborot xizmati (F.Masharipov) bilan birgalikda keltirilgan ilovalarga muvofiq shakllarda "Ochiq byudjet" axborot portali hamda tumanning rasmiy veb-saytlariga joylashtirish va har chorak yakunlariga ko'ra, keyingi chorak birinchi oyning 25-sanasiga qadar joylashtirib borish vazifalari yuklatilsin.

4. Mazkur qaror bajarilishi xalq deputatlari tuman kengashining "Mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi" I.Qalandarov hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari S.Sultonov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi



A.Салаев